DOI

Raxmonberdiyeva S.
Nizomiy nomidagi
Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘quvchisi

MUTATSIYA DAVRIDA O‘QUVCHILAR OVOZINI TARBIYALASHDA VOKAL PEDAGOGIKASI USLUBLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya: *Maqolada mutatsiya davrida o‘g‘il va qiz bolalarda bo‘ladigan o‘zgarishlar, bu davrda erkaklar va ayyollar ovoz bog‘lamlarining uzayishi, shuningdek mutatsiyaning turli holatlarda kechishi, bu davrda vokal mashg‘ulotlarining vaqtini qisqartirib, baland tovushda kuylatishni bir oz kamaytirishga to‘g‘ri kelishi, hamda bolalar ovozini tarbiyalashda aralash ovoz turini takomillashtirib borish haqida so‘z boradi*
Kalit so‘zlar*: Mutatsiya, faltset, ovoz, diskant, vokal, oktava, soprano, tessitura, tembr, tovushlar, musiqa asbobi.*

Rachmonberdieva S.
Nizami
Student of Tashkent State Pedagogical University

THE IMPORTANCE OF METHODS OF VOCAL PEDAGOGY IN THE EDUCATION OF THE VOICE OF STUDENTS IN THE PERIOD OF MUTATION

Annotation: *the article will talk about the changes in boys and girls during the mutation period, the lengthening of the vocal cords of men and women during this period, as well as the course of the mutation in different cases, during which it is necessary to reduce the time of vocal training and slightly reduce singing in a high tone, as well as improve the*
Keywords: *mutation, faltset, voice, discant, vocal, octave, soprano, tessitura, timbre, sounds, musical instrument.*

O‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama jismonan sog‘lom ruhda tarbiyalashda mutatsiya davrida olib boriladigan ishlarni o‘ta muhimdir. Mutatsiya lotincha (o‘zgarish, almashish) deganidir. —Kattalarda ovoz buzilishining ko‘pchilik hollari sababi ularning jinsiy balog‘atga yetishish, ya’ni mutatsiya davrida ro‘y beradi va ovoz buzilishining asosiy sababi ana shu davr asoratlaridir. asosiy ton chastotasining o‘zgarish holati ro‘y beradi. O‘g‘il bolalarda ovoz balandligi taxminan bir oktavaga, qiz bolalarda esa 3 - 4 yarim tonlarga pasayadi. ko‘pchilik erkaklarda mutatsiya 3 - 6 oy davomida yakunlanadi. Shu davrda bo‘yin uzayadi, hiqildoq pastga tushib, o‘lchami

https://wordlyknowledge.uz

kattalashadi. Mutatsiya davrida erkaklar ovoz bog‘lamlari 10 smga uzayadi va yo‘g‘onlashadi. Ayollar ovoz bog‘lamlari esa 4 smga uzayadi. Ko‘pchilik bolalarda, ya’ni o‘g‘il va qiz bolalarda ham ovoz o‘zgarishi bir tekis kechadi. Lekin ba’zi bir hollarda mutatsiya buziladi.

Sekinlashuvchi mutatsiya – ovoz o‘zgarishi odatdagidan bir necha yil keyinga suriladi;

Cho‘ziluvchi mutatsiya – mutatsiyaning klinik ko‘rinishlari oy emas, yillarga cho‘ziladi.

Noto‘liq mutatsiya – bola ovozi kattalar ovoziga to‘liq o‘zgarmaydi.

Yuqoridagi barcha uchta ko‘rinishida ham ovoz o‘zining yuqori toni, xronik xirilovchanligi bilan xarakterlanadi. Bolalar ovoziga xos bo`lgan yuqori ovozni ancha vaqtgacha ishlatish mutatsiya yoki rubertofatsiya yoki shunchaki faltset deb ataydilar. Qizlarda ovoz faqat 3 - 4 yarim tonga pasayadi. Hatto u pasaymagan taqdirda ham buzilish hisoblanmaydi. 14 - 15 yoshdan katta yoshdagi yuqori tonli o‘g‘il bolalar ayol sifat deb hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quvchilar ovozini tarbiyalashda vokal pedagogikasi uslublaridan keng foydalanish lozim. Ashula aytishning o‘ziga hos tomonlari bilan bog‘liq o‘z qiyinchiliklari ham yo‘q emas. Xonandaning ovozi o‘ziga hos “musiqa asbobi” hisoblanadi. Biroq, kuylashdan oldin tinglay bilish ham kerak. Tinglaganga ham ayrim musiqa tovushlarini yoki ohangni tashkil etuvchi tovushlarning ketma – ketligin aniq yetkazib bera oladigan darajada eshita bilash kerak.

Mutatsiya arafasida muntaszam ashula aytish bilan shug‘ullanish ovozning birmuncha silliq, birmuncha tekis o‘rganishiga va hatto mutatsiya davrida ham ashula aytaverish imkonini beradi. Mobodo mutatsiya o‘tkir holatda nomoyon bo‘lsa ma’lum davrgacha mashg‘ulotni to‘xtatib turishga to‘g‘ri keladi. Mutatsiya davrida vrach – foniatorga murojaat qilish juda muhim.

Bu davrda vokal mashg‘ulotlarining vaqtini qisqartirib, baland tovushda kuylatishni bir oz kamaytirishga to‘g‘ri keladi. Toliq ishning birinchi alomatlari ko‘zga tashlanganda mashg‘ulotni to‘xtatish kerak bo‘ladi.

O‘g‘il bolalar mutatsiya davrida ashula aytish bilan muntazam shug‘ullanib borsalar, mutatsiya silliq va sezilmay o‘tishi mumkin. Ular ovozini yetarli darajada boshqarib, o‘zlariga qulay tovushlarni tanlab kuylashlari mumkin. Odamda bunday vaqtda diskant alt ovoziga yozilgan qo‘shiqlarni kuylash maqsadga muvofiq keladi. Muntazam ravishda olib boriladigan mashg‘ulotlar jarayonida ovoz bog‘lamlarining o‘sishi, notekis bo‘lsada, diapazonning kengaytirishda ehtiyot bo‘lish lozim.

O‘smir yoshdagi bolalarning diapazoni: soprano, diskantlar, birinchi oktavadagi Do-Re notalaridan, ikkinchi oktavaning Fa-Sol tessiturasi baland, agar past tovushlar ko‘p uchrasa, asarning tessiturasi past hisoblanadi. Asarning past yoki baland tessiturasida ijro etish sun’iy aytishga olib keladi, bola ovoziga salbiy ta’sir etadi. Ana shuning uchun ham o‘qituvchi asar tanlaganda, tessitura qulayliklarini nazarda tutmog‘i kerak. O‘smir yoshda o‘g‘il bolalarda ham, qiz bolalarda ham tovush chiqarish mexanizmining farqi aniq bilinadi. Qiz bolalarda

https://wordlyknowledge.uz

diapazonning asosiy qismini markaziy registr tashkil etadi. Shu registr tabiatan aralash tovush chiqarishga moslashgan. Sof ko‘krak va yuqori sado faqat chetki notalardagina tinglanadi. O‘g‘il bolalarda esa, aralash sado sun’iy yo‘l bilan chiqariladi. Shu tufayli ham o‘g‘il bolalar cheklangan diapazonga ega bo‘lishadi. Chunki, ashula aytish paytida ko‘proq ko‘krak registridan foydalanishadi. Asosiy va aralash registrdan tovush chiqarishni o‘rganib olishgandan keyingina ular o‘z diapazonlarini kengaytiradilar.

Qiz bola ovozi tabiatan markaziy (o‘rta) registrga ega bo‘ladi. Bunday hol ovoz diapazonining barcha notalarini tekis chiqishiga imkon beradi.

O‘g‘il bolalarda bunday registrda kuylash birmuncha murakkabdir. Bu borada o‘ziga hos turli ovoz mashqlari bilan o‘g‘il bolalarda ham shu zaylda ko‘nikma hosil qilish mumkin.

Bolalar ovozini tarbiyalashda aralash ovoz turini takomillashtirib borish katta ahamiyatga ega. Bu ovozning mayin chiqishiga registrdan – registrga o‘tishni osonlashtirishga, diapazonining barcha notalarida bir tekisda kuylashga imkon beradi.

O‘smir yoshdagi bolalarda ko‘krak registridan o‘z o‘rnida foydalanish lozimligini o‘qituvchi yaxshi bilishi kerak. Chunki, ko‘krak registriga kiradigan ovozdan ortiqcha foydalanilganda bola ovozini baqiroq qilib qo‘yishi mumkin. Ovoz kuchli diapason bilan bevosita aloqada bo‘ladi. Diapazonning turli qismlaridan ma’lum bir ovoz kuchligini talab qilish mumkin. Aks holda ovozga qattiq zarar yetishi mumkin.

Bola ovozining kuchli tiklanish davrida baland bo‘lmaydi. Zero, buning unchalik ahamiyati ham yo‘q. Bola ovozining go‘zalligi, uning jarangdorligi, yengilligi soddaligida. Ovozning tabiiy kuchi yordamida jarangdorlikda sadolarning jozibadorligida, yoqimliligiga erisha borib, bu bilan o‘qituvchi bola ovozining rivojlanishini ta’minlaydi. Bola ovozining eng baland sadosiga o‘rtacha kuch bilan erishadi.

Ovoz jarangdorligi ko‘p hollarda tembrga (ovoz tusi va chiroyliligiga) bog‘liq bo‘ladi. O‘smir yoshda olib boriladigan muntazam va to‘g‘ri ashula aytish jarayonida tembr o‘sha ovozning o‘zigagina hos bo‘lgan sifatlarga ega bo‘lib boradi.

Tembrni to‘g‘ri tarbiyalash, ayni paytda bolalarni diapazonining turli qismlarida unli harflarni to‘g‘ri va jarangdor ijro etishga o‘rgatish demakdir.

Tembr ovoz sifatiga ikki yo‘l bilan ta’sir etiladi:

Birinchisi: registrni (ko‘krak va bosh registr)larini almashtira borib va ovoz pardalarini o‘zgartira borish orqali;

Ikkinchisi: ovozni kuchaytiruvchi bo‘shliq (hiqildoq, og‘iz) bilan ta’sir etish mumkin;

Kuylanadigan asarning mazmini, harakteri va obrazlar holatidan kelib chiqqan holda o‘qituvchi ayrim aktyorlik harakatlaridan ham foydalanib borishi tavsiya etiladi.

https://wordlyknowledge.uz

Musiqa o‘qituvchisi o‘quvchilarning balog‘at yoshida ro‘y beradigan ovoz o‘zgarishlari mutatsiya (rasida) davri haqida batafsil ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak. Bu esa mutatsiya davrida bolalar ovozini saqlash va rivojlantirish uchun juda muhimdir. Uning qanday kechishi organizmning o‘sish tezligi, shu organizm gormonal fonining holati, mintaqaviy sharoitlar va har bolaning individual fiziologik xusiyatlari, milliy mansubligi va boshqalarga bog‘liqdir. Mutatsiya oldi davrida ovozlarning o‘ziga xos tembr xususiyatlari har bir ovozga xos bo‘lgan xarakterli belgilarga ega bo‘ladi. Ko‘krak qafasi rivojlana borishi va yanada chuqurroq nafas olish natijasida ovoz to‘yg‘in va to‘liq yangray boshlaydi. Mutatsiya har xil, birovlarda asta - sekin va sezilmasdan, ba’zi birovlarda esa juda yaqqol va sezilarli kechadi. Odatda u mutatsiya davrigacha kuylab yurgan bolalarda tez va ovozning keskin o‘zgarishisiz kechadi. Ovoz harakatchanligi yo‘qoladi. Qisqa cho‘zimlarni tez tempda kuylash qiyinlashadi. Bunday holatlarda qo‘shiqda uchradigan sakrashlardan va past tessiturada kuylashdan qochish zarur. Shundagina mutatsiya davrida o‘quvchilarning ovozini asrab, bu davrini o‘tishini osonlashtirgan bo‘linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G.Sharipova. Musiqa o`qitish metodikasi. “Musiqa” nashriyoti,- T., 2014y
2. Ibrahimjanova G.I. Musiqiy tovushlarning xususiyatlari. // Scientific Journal: “Oriental Renaissance”. 4-2022.
3. Ibrahimjanova G.A. Musiqiy-nazariy fanlarni o‘qitish metodikasining o‘ziga xosliklari. // Ilmiy jurnal: TDPU Ilmiy axborotlari. 2022/ 6- son.
4. Raxmonberdiyeva, S. M. (2021). MUSIQA DARSLARIDA BOLALARNING MUSIQIY IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARADORLIGI. Интернаука, (19-6), 15-16.
5. Raxmonberdiyeva, S. M. (2020). OQUVCHILAR ESTETIK DIDINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA TINGLASH FAOLIYATINING TUTGAN ORNI. *Интернаука*, (1-3), 67-69.
6. Shukurova, N. G. (2021). COMPUTER TECHNOLOGY IN MODERN MUSIC EDUCATION. *Academic research in educational sciences*, *2*(2), 1086-1089.
7. Shukurova, N. Pedagogical and Psychological Fundamentals of Teacher Professional Competence. *JournalNX*, 679-681.
8. Raxmonberdiyeva, S. (2022). MTT DA BOLALARNI MAQOM ASARLARI TINGLATISHGA O‘RGATISH VA UNI IDROK QILISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH.
9. Shukurova, N. (2023). MUSIQIY-RITMIK MASHQLARNING BOLALARNI UMUMIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI. Innovative Development in Educational Activities, 2(1), 57-60.
10. Ibrahimjanova G.I. Musiqiy tovushlarning xususiyatlari. // Scientific Journal: “Oriental Renaissance”. 4-2022.

https://wordlyknowledge.uz